



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTINI TARIXIY-QIYOSIY

O‘RGANISH MASALALARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO
ILMIY KONFERENSIYASINING
O‘TKAZISH BO‘YICHA

AXBOROT XATI

(24-may, 2024-yil)

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik” kafedrasida Sizlarni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi, Turkiyaning Istanbul universiteti, Marmara universiteti, Anqara universiteti, G‘ozi universiteti, Anqara Hoji Bayram Vali universiteti, Hindistonning Javaharlal Neru universiteti hamkorligida tashkil etiladigan “Sharq va G‘arb adabiyotini tarixiy-qiyosiy o‘rganish masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiyasiga taklif etadi.

Xalqaro konferensiyaga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar qabul qilish rejalashtirilgan:

1. Q‘iyosiy adabiyotshunoslikning nazariy masalalari.
2. Sharq va G‘arb xalqlari adabiyotida o‘zaro ta‘sir va adabiy aloqa masalalari.
3. Sharq va G‘arb xalqlari adabiyotida tipologik masalalar.
4. Sharq va G‘arb adabiy aloqalar tizimida badiiy tarjimalarning o‘rni.

Muhim eslatma! Taqdim etilgan maqola va materiallarda ilg‘or mahalliy hamda xorij tajribasi asosida soha mutaxassislariga foydali, amaliyotga joriy etishga oid tavsiyalar bo‘lishi kerak.

Maqolalar o‘zbek, turk, rus, ingliz tillarida qabul qilinadi.

Xalqaro konferensiyada ishtirok etish uchun quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

Mutaxassislar **2024-yilning 15-apreliga qadar** tashkiliy qo'mitaning telegramm elektron manziliga <https://t.me/+U6GOgpPChBg5ZWJi> maqola matnini yuborishlari so'raladi. *Tashkiliy qo'mita materiallarni texnik tahrir qilish, shuningdek, maqola qabul qilinmaganda va qaytarilmaganda, bu bo'yicha izoh bermaslik huquqiga ega.*

Har bir maqola turnitin.com tizimi orqali **plagiatga** tekshiriladi.

Maqola ma'qul topilgach, ilmiy texnik bazalarda indekslash, DOI raqam biriktirish kabi xarajatlarni qoplash maqsadida mualliflar tomonidan **100 ming so'm miqdorda badal puli** to'lanishi nazarda tutilgan.

Tanlab olingan maqolalar "**Xalqaro konferensiya materiallari**" to'plami sifatida nashr etiladi.

Nashr etilgan maqolalar quyidagi bazalarda indekslanadi:

- *Google scholar*
- *cyberleninka.ru*
- *Srossref*
- *Archive.org*

To'plamda e'lon qilingan har bir maqolaga **DOI (Crossref)** raqami beriladi.

Maqolani tayyorlashga qo'yiladigan talablar:

Maqola hajmi 7-10 betdan kam bo'lmasligi lozim.

Maqola matni Doc formatida, lotin yozuvida, 1.5 intervalda, o'ng tomondan — 15 mm, chap tomondan — 30 mm, yuqori va pastdan — 20 mm hoshiya qoldirilib, Times New Roman 14 kegel shriftida tayyorlanadi.

Maqola tuzilishi uchun talablar:

- maqola nomi bosh harflar bilan beriladi;
- muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi, ilmiy unvoni, ish joyi, elektron pochta manzili to'liq keltiriladi;
- annotatsiya (maqolaning qisqacha mazmun va maqsadi, 100 ta so'zdan kam bo'lmasligi lozim) **o'zbek, rus, ingliz, turk** tillarida beriladi;
- kalit so'z va iboralar 7-10 so'zdan iborat bo'lishi kerak;
- maqola mazmuni Kirish (Introduction), Asosiy qism (Main part), Natijalar va muhokama (Results and Discussions), Xulosalar (Conclusions), Adabiyotlar (References)dan iborat bo'lishi lozim. Adabiyotlar umumiy maqola oxirida keltiriladi. Havolalar sahifada maqolaning oxiridagi adabiyotlardan kelib chiqilgan holda [masalan, 1, b.23] joylashtirilishi kerak.

Ma'lumot uchun tel: +99899 8800610 Saidova Nargiza Mahmudovna

Plastik karta raqami: 9860120105412668

Telegramm guruh: <https://t.me/+U6GOgpPChBg5ZWJi>

Manzil: TDSHU Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti "Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrasida, Toshkent shahri, Amir Temur, 20 uy, 201-xona.